



## TADBIRKORLAR HUQUQLARINING HUQUQIY KAFOLATLARIDA DAVLATNING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINING AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7475859>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022

Online: 23<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

### ABSTRACT

*Har qanday jamiyatning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Mazkur faoliyat davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyasini amalga oshirishda moddiy asoslaridan biridir. Shu sababli, davlatning fuqrolik-huquqiy javobgarligini tartibga solinishi tadbirkorlik huquqiy faoliyatining rivojlanishi tadbirkor va davlat o'rtasidagi munosabatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.*

Har qanday jamiyatning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Mazkur faoliyat davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyasini amalga oshirishda moddiy asoslaridan biridir. Shu sababli, davlatning fuqrolik-huquqiy javobgarligini tartibga solinishi tadbirkorlik huquqiy faoliyatining rivojlanishi tadbirkor va davlat o'rtasidagi munosabatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilari sifatida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha turli xil takliflarni keltirishimiz mumkin:

- tashkiliy mexanizmlar;
- har xil turdagi kafolatlar tizimi;
- fuqarolik-huquqi va konstitutsiyaviy erkinliklar jihatidan himoya qilish;
- sud mexanizmlaridan foydalanish;
- biznes ombudsman orqali

Davlatning tadbirkorlarning huquqlari buzilgan taqdirda odil sudlovni kafolatlovchi vositalarini ta'minlab berishi o'ziga xos qiyinchiliklar orqali ham amalga

oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu masalada huquqiy munosabatlarning ayrim ishtirokchilarining (davlatning) huquqlarini himoya qilish bilan bir qatorda, ishtirok etish shaklidan qat'i nazar boshqa barcha ishtirokchilarga (shu jumladan tadbirkorlarga) teng darajada himoya qilishni nazarda tutadigan teng himoya tamoyiliga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Zarar turlari va noqonuniy xatti-harakatlar oqibatlarini ko'lamini keng bo'lgan vaziyatda ushbu muammoni hal qilish qiyin (masalan, tadbirkorlarning "obro'siga" zarar yetkazish oqibatlarining butun doirasini aks ettirishning imkoni yo'q). Shu nuqtai nazardan, davlatning fuqarolik javobgarligi subinstitutining muhofaza (himoya) funksiyasini amalga oshirish, faqat tadbirkorlarning o'z manfaatlarini davlat tomonidan zararlardan muhofaza (himoya qilish) bo'yicha subyektiv huquqlari amalga oshirilishining aniq



chegaralariga ega bo'lgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Tadbirkorlarning huquqlari shaxsiy nomulkiy huquq bo'lib, unga yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplanishi holati va manfaatlarini himoya qilish huquqi uning tadbirkorlik faoliyati tugatilgan paytdan boshlab tugaydi.

Ushbu himoya institutida davlatning noqonuniy harakatlaridan himoya qilish, umumiy va maxsus qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu paragrafda tadbirkorning davlat tomonidan zarar ko'rgan taqdirda manfaatlarini himoya qilish huquqi chegaralarini hamda huquq va majburiyatlarning umumiy muvozanati haqida gap boradi.

Shu nuqtai nazardan, biz huquqiy kafolatlar institutini rivojlantirish zarurligini, davlat tomonidan zarar yetkaziladigan vaziyatda tadbirkorning o'z manfaatlarini himoya qilish (muhofaza etish) bo'yicha subyektiv huquqini amalga oshirish mexanizmi sifatida ko'rib chiqamiz.

Huquqiy (yuridik) kafolatlarning nazariy masalalari ko'pincha tadqiqotchilar e'tiborini tortadi. Shu bilan birga, ushbu institutning amaliy jihatlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib jumladan: har xil turdagi kafolatlar<sup>1</sup>, kafolat subyektlari, kafolatning tashkiliy-

huquqiy mexanizmlari<sup>2</sup> masalalarida tadqiqotlar olib borilgan.

Qoida tariqasida, huquqiy kafolatlar deganda jamiyatda inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish zarurati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqiy choralar tushuniladi, bunday himoya mexanizmini shakllantirish bilan, davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash asosiy maqsad qilib olinadi.

A.B. Loshkarev ta'kidlashicha, huquqiy kafolatlar - bu "normativ va huquqiy ko'rsatmalarda ifodalangan huquqiy vositalar, ularni amalga oshirish boshqa normativ-huquqiy talablarni ta'minlashi yoki amalga oshirish imkoniyatini beradi."<sup>3</sup>

Olimarningning ta'kidlashicha: 1) huquqiy kafolatlar qonuniy vositalar orqali amaga oshiriladi; 2) huquqiy kafolatlar huquqiy tizimda o'ziga xos, sifat jihatidan yangi shakllanishni anglatmaydi; 3) huquqiy kafolatlarni o'rganish ularning funksional maqsadi, ularning huquqiy tartibga solish muammolarini maqbul yechish vositasi sifatidagi rolini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, davlat yuridik shaxsining, shuningdek tadbirkorlarga nisbatan davlat kafolatlarining o'ziga xos xususiyatlarini

<sup>1</sup> Чалых И.С. Конституционно-правовые гарантии субъективных экологических прав. Дисс. ... кандидата юридических наук: 12.00.02 / И.С. Чалых. - Белгород, 2010. - 226 с; Фильченко И.Г. Процессуальные гарантии принятия обоснованного судебного решения в гражданском процессе. Автореферат дис. ... кандидата юридических наук: 12.00.15 / И.Г. Фильченко. - Воронеж, 2010. - 26 с.; Валеев Д.Х. Система процессуальных гарантий прав граждан и организаций в исполнительном производстве / Монография. - М.: Статут, - 2009.440 с. и др.

<sup>2</sup> Белоусов Д.В., Чепурнова Н.М. Судебная защита в механизме гарантирования прав и свобод. Конституционно-правовой аспект: монография / Белоусов Д.В., Чепурнова Н.М. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. - 167 е.; Голик Н.М. Конституционная жалоба как гарантия защиты прав и свобод граждан: Монография / Голик Н.М. - М.: Изд-во РГТЭУ, 2010. - 263 с.

<sup>3</sup> Лощкарев А. В. Правовые гарантии: теоретические проблемы определения понятия и классификации: Автореферат дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01. - Краснодар, 2009.- С.8..



belgilaydi. Ular orasida: 1) kafolatlar mazmuni va ularni taqdim etish shartlari davlat tomonidan normativ tarzda belgilanadi; 2) davlat kafolatlar ijrochisi sifatida tegishli organlar va mansabdor shaxslarni belgilaydi; 3) mas'ul davlat organlari tomonidan qonuniy kafolatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, tadbirkorlar ushbu kafolatlar ijrosini ta'minlash uchun yuqori turuvchi organga, ya'ni davlatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan boshqa davlat organlariga murojaat qilishlari shart. Davlat organi yoki mansabdor shaxs jamoat manfaatlarining kafili va xalq vakili, shuningdek tegishli nazorat tizimini ta'minlash majburiyatini oladi; 4) qonun chiqaruvchi, bir tomondan, tadbirkorlarning huquqlari kafolatlarini me'yoriy ta'minlab, tadbirkorlik subyektini davlatga "tenghuquqli sherik" ga aylantiradi, u davlatga nisbatan qonuniy da'volar bilan murojaat qilish huquqiga ega hisoblanadi; davlat bu talablarni qondirishga majburdir. Faqatgina bunday majburiyat to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorning tegishli huquqlari davlat tomonidan ta'minlangandagina o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Masalan, ma'lum bir qonunda tadbirkorlar uchun bir qator kafolatlar ko'zda tutilgan, ammo tadbirkorlar ularni hammasini amalga oshira olmaydilar, chunki amalga oshirishga mas'ul shaxslarning zaruriy harakatlarini tartibga soluvchi tegishli qonun hujjatlari mavjud emas hisoblanadi.

Adabiyotda tadbirkorlar uchun davlat kafolatlariga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, I.O. Botkin ta'kidlashicha "qonunchilik va normativ hujjatlarda mustahkamlangan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatini va uning shakllarini tanlash

erkinligini belgilaydigan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan va ta'minlaydigan chora-tadbirlar, vositalar va usullar tizimini ko'rsatadi hamda tadbirkorlarning subyektiv huquqlarini amalga oshirilishini ta'minlovchi, shuningdek, ularni muhofaza qilish va himoya qilishni ta'minlaydigan tadbirkorlik faoliyatining barqaror asoslarini ta'kidlaydi.

Ushbu ta'rifga ko'ra himoya qilish predmeti – "chora-tadbirlar, vositalar va usullar tizimi" yetarli bo'lmagan holatlarda, tadbirkorning o'z manfaatlarini muhofaza qilish (himoya qilish) bo'yicha subyektiv huquqining kafili bo'lishga qodir bo'lgan davlat zarar yetkazish holatida asosiy rolga o'tadi.

V.V.Volkovningning pozitsiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u tadbirkorlik faoliyatining davlat kafolatlari "qonunda belgilangan va qonunchilikda mustahkamlangan tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi vositalar va usullarning ko'p bosqichli tizimi" deb hisoblaydi. Ushbu ta'rif davlatni kafil sifatida ko'rsatishni o'z ichiga oladi, lekin potensial huquqlar kafolati sifatidagi davlatning pozitsiyasini va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida davlatga nisbatan manfaatlar to'qnashuvining dastlabki shartlarini yaratadi.<sup>4</sup>

Bundan tashqari, G.O.Vergasovning ta'kidlashicha, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda xususiy mulk huquqini ta'minlash kafolatlarini ko'rib chiqqan "xususiy mulk huquqining amalga

<sup>4</sup> Волкова В. В. О понятии государственных гарантий предпринимательской деятельности // Вопросы гуманитарных наук. - 2008. - № 3. - С. 144-150.



oshirilishi ham davlat tomonidan, ham fuqarolik jamiyatining o'zi tomonidan o'rnatilgan kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadi", deb hisoblaydi. Ikkinchisi, mulkdorning irodasi natijasidagi harakatlari bilan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xususiy mulkni yaratish, sotib olish va himoya qilish huquqi sifatida tushuniladi.<sup>5</sup>

Tadbirkorlik faoliyatidagi kafolatlar doirasida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi kafolatlar masalasi ko'pincha investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish muammosi doirasida yuzaga keladi. Shu bilan birga, chet ellik investor huquqlarining ko'pgina kafolatlari qonun chiqaruvchi tomonidan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonunga binoan tartibga solinadi. Qonunning 15-moddasida investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari belgilangan bo'lib unga ko'ra, davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Agar davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasa, ular o'zlari vakolatli bo'lgan va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq choralarni ko'rish mumkin.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan investitsiya faoliyati subyektlarining

investitsiya faoliyatiga bog'liq bo'lmagan boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Davlat investorlarning fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish joyi bilan bog'liq holda, shuningdek investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Investor tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa investorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi kerak. Bunda davlat tadbirkorlik subyektining hamta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) sifatida boshqa ta'sischilar (aksiyadorlar, ishtirokchilar) kabi teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Shuningdek, davlat tomonidan investor turli xildagi kafolatlar belgilanga hisoblanadi.

Jumladan, qonunning 62-moddasida investitsiya faoliyati subyektlariga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash tartibi belgilangan bo'lib unga ko'ra,

Investitsiya faoliyati subyektiga investitsiya faoliyatini cheklash, to'xtatib turish yoki tugatish munosabati bilan yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash qonunda belgilanadi.

Davlat boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini cheklaydigan qarorlar qabul qilingan taqdirda, shuningdek ushbu organlar tomonidan investitsiya faoliyati subyektlarining xo'jalik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashilgan hollarda yetkazilgan zararlarning o'rnini qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

<sup>5</sup> Вергасов Г. О. Юридические гарантии обеспечения права частной собственности в процессе формирования гражданского общества в современной России (теоретико-правовой аспект): Автореферат дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01. - СПб. 2004,- С. 7



Davlat organining (mansabdor shaxsning) g'ayriqonuniy ma'muriy hujjat chiqarishi natijasida investitsiya faoliyati subyektlariga yetkazilgan zararlarning o'rni sudning qarori asosida davlat tomonidan, birinchi navbatda tegishli organlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, keyinchalik aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olgan holda qoplanishi yoki kompensatsiya qilinishi lozim.

Chet el investorlarining huquqlarini himoya qilish mexanizmi sifatida huquqiy kafolatlardan tashqari, davlat ro'yxatidan o'tkazish, maxsus investitsiya rejimini yaratish, milliy va xalqaro qonunchilikni bixillashtirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimidan faol foydalanish, sug'urta va kabi boshqa huquqiy vositalar qo'llaniladi.<sup>6</sup>

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari to'g'risida" gi qonuning 18-moddasiga binoan Tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari belgilanga bo'lib, unga muvofiq, davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususi mulk boshqa mulk shakllari qatori daxlsizdir va davlat tomonidan himoya qilinadi.

Tadbirkorlik subyekti mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Tadbirkorlik subyektlarining o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi,

<sup>6</sup> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonun Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son

davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, boshqa tashkilotlarning qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.<sup>7</sup> Bundan tashqari, qonunning 23-moddasida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlari kafolatlari belgilangan bo'lib, ushbu moddaning 5-qismiga binoan Mulk huquqini bekor qiladigan qonun hujjati qabul qilingan taqdirda, ushbu hujjatni qabul qilish natijasida mol-mulkning mulkdori bo'lgan tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararning o'rni, shu jumladan mol-mulkning qiymati davlat tomonidan qoplanadi. Zararning o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar sud tomonidan hal qilinadi. Mulk huquqi bekor qilinganda olib qo'yilayotgan mol-mulkning qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, mulk huquqi bekor qilingan paytdagi holatga ko'ra baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadi.

Qonunning 38-moddasiga binoan tadbirkorlik faoliyati subyektiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash tartibi o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra tadbirkorlik faoliyati subyektiga yetkazilgan zararning o'rni, shu jumladan boy berilgan foyda bu zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'la hajmda qoplanishi kerak. Zarar yetkazuvchi bo'lmagan shaxs zimmasiga qonunga binoan zararning o'rnini qoplash majburiyati yuklatilishi mumkin.<sup>8</sup>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari to'g'risida" gi Qonun, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari to'g'risida" gi Qonun,



Davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hujjat qabul qilinishi natijasida tadbirkorlik faoliyati subyektiga yetkazilgan zararlarning o'zni davlat tomonidan yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan sudning qarori asosida qoplanishi kerak. Davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari aybi bilan yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash sud qarori bilan mazkur mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston qonunchiligida investorlarga beriladigan huquqiy kafolatlar sonining rasmiy ravishda ko'payishi, chet el investitsiyalarini kafolatlashning huquqiy mexanizmi samaradorligini, shu jumladan zarar yetkazilgan taqdirda zararni qoplashni samarali ravishda amalga oshirilishiga olib keladi.

Ko'rinib turibdiki, investorlar huquqlarining huquqiy kafolatlarini amalga oshirish muammosi tadbirkorlar huquqlarining huquqiy kafolatlarini amalga oshirishning kompleks muammosining faqat bir qismidir. Shunga qaramay, allaqachon ushbu tahlil natijalari, shuningdek ishning avvalgi qismlarida davlat tomonidan tadbirkorlarning huquqlari buzilishini o'rganish natijalari (davlatning fuqarolik huquqiy munosabatlaridagi ishtiroki uch jihatdan),

bir qator xulosalar qilish mumkin ko'rinadi:

Zarar yetkazilgan taqdirda davlatning zararni qoplash majburiyatlarini nazarda tutadigan tadbirkorlar huquqlarining huquqiy kafolatlari tabiatan juda xilma-xildir, natijada ularning har birini qoidalar bilan belgilash mumkin emas, ya'ni yagona qonunda barcha huquqiy kafolatlarni bir joyda jamlashning imkoni yo'q;

yuridik kafolatlar turli darajadagi (xalqaro, malakat miqiyosida, mintaqaviy, mahalliy) normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo'lib, ular tadbirkorlar ishtirokida turli xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi (soliq, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy va boshqalar), shu jumladan, o'zaro faoliyat jarayonida bu huquq sohalar to'qnash kelishi mumkin.

Tadbirkorlarga davlat tomonidan zarar yetkazilgan taqdirda ularning huquqlarining huquqiy kafolatlarini o'z ichiga olgan ko'plab huquqiy normalar mavjudligiga qaramay, ularni O'zbekiston qonunchiligida amalga oshirishning samarali mexanizmlari hanuzgacha etishmayapti;

Mintaqaviy qonunchilikda investorlar (tadbirkorlar) huquqlarining o'zlarining huquqiy kafolatlarini ishlab chiqish, shuningdek qonunchilikda mavjudlarini aniqlab berish amaliyoti o'z samarasini ko'rsatdi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi tadbirkorlarning huquqlari davlat tomonidan buzilgan taqdirda, ularning huquqlarining huquqiy kafolatlarini amalga oshirish mexanizmining samaradorligiga, agar tadbirkorlarning subyektiv huquqining quyidagi elementlarini amalga oshirilishiga imkon beradi. Ushbu mexanizm asosida tashkil etiladigan



huquqiy normalarni shakllantirishda ularning huquqlarini himoya qilishda quyidagilar e'tiborga olinadi: a) tadbirkorning o'z manfaatlarining davlat manfaatlari bilan tengligi huquqi; b) davlatdan fuqarolik huquqining teng huquqli subyekti sifatida o'z majburiyatlari yuzasidan vazifalarini bajarilishini talab qilish huquqi.

Bundan tashqari, qonunchilik doirasida tadbirkorlarning huquqlarini davlat tomonidan buzilgan taqdirda, ularning huquqlari yetarli darajada himoya qilinishini ta'minlaydigan yagona huquqiy kafolatlar tizimini ishlab chiqish zarur bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlar huquqlarining asosiy huquqiy kafolatlari quyidagilar bo'lishi kerak:

tadbirkorlar tomonidan qo'llaniladigan qonun hujjatlari to'g'ri

bajarilishi va o'zgarishlarga duch kelmasligi kafolati;

rekvizitsiya, davlat tasarrufidan chiqarish va tadbirkorlarning xususiy mulkiga nisbatan tomonlarning kelishuvida ko'zda tutilmagan boshqa aralashuv shakllaridan kafolat;

Amaldagi qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish kafolati;

faoliyatning ayrim turlari uchun taqdim etiladigan imtiyozlarni berish kafolati (qoida tariqasida kompensatsiya to'lovlarini nazarda tutadigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalar);

davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati bilan bog'liq zarar yetkazish xavfini sug'urtalash kafolati.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. Rasmiy nashr - O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi -T.:Adolat, 2020 y.-560 b.
3. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, (26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son)
4. "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 52-son, 533-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda)
5. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)
6. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (03/21/669/0060-son)
7. Qobiljon o'g'li, A. A. (2021). The Concept, Types and Licensing Procedures of Activities that Must Be Licensed in International Investment Law. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(6), 188-193.
8. Alijonov, A. (2021). DECISIONS (COMPENDIUMS) OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AS A SOURCE OF INTERNATIONAL INVESTMENT LAW. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
9. Shavkatugli, D. N. (2022). Conciliation as a Means of Adr Vs Arbitration and Mediation. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 430-436.



10. Umidzhonovich, Nurullaev Farrukh. "The Perspectives of the Establishment of Multi-Door Courthouse Centers in the Republic of Uzbekistan and Online Dispute Resolution is Another Step on the Way to Justice." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 6 (2022): 469-473.

11. Jobirovich, S. F. (2021). History of Uzbekistan's Legislation on Investment - A Comparative Study of Uzbekistan and Some Developed Countries Investment Legislation. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(6), 228–232. Retrieved from